

REZYUME. Maqolada ingliz va qoraqalpoq adabiy matnlarida sonlarning leksik-semantik farqlari, kognitiv va funksional roli qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot frazeologik birliklar, maqollar va badiiy matnlardan foydalangan holda olib borildi. “Bir”, “ikki”, “etti” kabi sonlarning madaniy-ramziy ma’nosi, ifodaliligi va konnotativ yuklamasi o’rganildi. Kognitiv-lingvistik va lingvokulturaraviy yondashuvlar asosida til madaniyatidagi o’xshashlik va farqlar aniqlanib, son birliklari birlik, do’stlik, yolg’izlik va kamlik tushunchalarini qanday aks ettirishi ham ko’rsatildi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, ikkala tilda ham raqamlar til tizimining madaniy belgisi sifatida muhim o’rin tutadi.

РЕЗЮМЕ. В статье проводится сравнительный анализ лексико-семантических различий и когнитивно-функциональной роли числовых единиц в английском и каракалпакском языках в художественных текстах. Исследование осуществлялось на основе фразеологических единиц, пословиц и художественных текстов. Были рассмотрены культурно-символическое значение, экспрессивность и коннотативная нагрузка таких чисел, как “один,” “два” и “семь.” На основе когнитивно-лингвистических и лингвокультурологических подходов были выявлены сходства и различия в языковой культуре, а также показано, как числовые единицы отражают понятия единства, дружбы, одиночества и недостатка. Результаты подтверждают, что в обоих языках числовые единицы занимают важное место как культурный маркер языковой системы.

SUMMARY. This article presents a comparative analysis of the lexico-semantic differences and cognitive-functional roles of numeral units in English and Karakalpak literary texts. The research was conducted based on phraseological units, proverbs, and literary texts. The cultural-symbolic meanings, expressiveness, and connotative implications of numbers such as “one,” “two,” and “seven” were examined. Through cognitive-linguistic and linguocultural approaches, similarities and differences in language cultures were identified. The study demonstrates how numeral units reflect concepts of unity, friendship, loneliness, and scarcity. The results confirm that numeral units in both languages occupy a significant position as cultural markers within the language system.

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA IDIOMALARNING LINGVISTIK TAHLILI

M.T.Baxieva – *assistent o’qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch soʻzlar: idiomalar, frazeologiya, oʻzbek tili, ingliz tili, lingvistik tahlil, tarjima, milliylik, semantika.

Ключевые слова: идиомы, фразеология, узбекский язык, английский язык, лингвистический анализ, перевод, национальная специфика, семантика.

Key words: idioms, phraseology, Uzbek language, English language, linguistic analysis, translation, cultural specificity, semantics.

Kirish. Til – xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tafakkur tarzini ifodalovchi asosiy vositadir. Har bir tilda frazeologik birliklar, xususan, idiomalar xalq tafakkurining oʻziga xosligini ochib beradi. Idiomalar soʻzlarning bevosita lugʻaviy ma’nosidan farqli tarzda qoʻllanib, koʻchma ma’no hosil qiladi. Shu bois ular lingvistik tahlil uchun muhim manbadir.

Adabiyotlar tahlili. Idiomalar masalasi jahon tilshunosligida ham, milliy tilshunoslikda ham doimiy tadqiqot obyekti boʻlib kelmoqda. Ingliz tilshunosligida idiomalarning tabiati, semantik xususiyatlari va tarjima jarayonidagi oʻziga xos jihatlari koʻplab olimlarning diqqat markazida boʻlgan. Jumladan, C. Fernando oʻzining “Idioms and Idiomaticity” asarida idiomalarni til tizimida alohida leksik-semantik birlik sifatida baholaydi va ularning frazeologik barqarorlik, metaforiklik hamda stilistik funksiyalarini batafsil tahlil qiladi [4]. M.Bakerning “In Other Words” asarida esa idiomalarning tarjima jarayonidagi muammolari keng yoritilgan boʻlib, muallif tarjimada idiomalarni soʻzma-soʻz oʻtkazib boʻlmasligi, ular milliy-madaniy kontekstda qayta talqin qilinishi zarurligini ta’kidlaydi [3].

Shuningdek, ingliz tilida idiomalarning stilistik va pragmatik xususiyatlari boʻyicha koʻplab amaliy izlanishlar olib borilgan boʻlib, ular idiomalarning nafaqat semantik, balki kommunikativ qiymatini ham koʻrsatib beradi.

Oʻzbek tilshunosligida ham idiomalar frazeologiya tarkibida muhim mavzu sifatida keng tadqiq qilingan. A.Gʻulomovning “Oʻzbek frazeologiyasi asoslari” asarida frazeologik birliklarning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, idiomalarning barqarorlik, obrazlilik va koʻchma ma’no xususiyatlari tahlil qilingan [3]. R.Sayfullayeva esa oʻz tadqiqotlarida oʻzbek tilidagi idiomalarning milliy tafakkur va madaniyat bilan bevosita bogʻliqligini ochib beradi [2]. Ularning ishlari shuni koʻrsatadiki, idiomalar xalqning turmush tarzi, ma’naviy qadriyatlarini va dunyoqarashini chuqur aks ettiradi.

Qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, ayrim tadqiqotchilar oʻzbek va ingliz tillaridagi idiomalarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga uringanlar. Masalan, ayrim ilmiy izlanishlarda oʻzbek tilidagi agrar hayot tarzidan kelib chiqqan idiomalar ingliz tilidagi urbanistik yoki tarixiy asosli idiomalar bilan qiyoslangan [3]. Biroq, mavjud ishlarda idiomalarning lingvistik xususiyatlari chuqur va tizimli tarzda tahlil qilinmagan, tarjimashunoslikda yuzaga keladigan muammolarga ham toʻliq yechimlar berilmagan. Shu bois mazkur masala bugungi kunda ham dolzarbligini yoʻqotmagan.

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi shuni koʻrsatadiki, ingliz va oʻzbek tillaridagi idiomalar alohida tilshunoslik tadqiqotlarida keng oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni qiyosiy va lingvistik tahlil asosida birgalikda oʻrganish hali ham chuqur izlanishni talab etadi.

Idioma tushunchasi.

Idioma tushunchasi koʻplab tilshunoslar tomonidan turlicha izohlangan. Ingliz tilshunosligida idiom “a phrase whose meaning cannot be deduced from the meanings of the individual words” tarzida ta’riflanadi [5].

Oʻzbek tilshunosligida esa idioma “tarkibiy qismlari erkin holda tushunilmaydigan, koʻchma ma’noga ega turgʻun birlik” sifatida izohlanadi [3].

Demak, ikki tildagi ilmiy manbalarda ham idiomaning asosiy belgisi – tarkibiy qismlarining semantik mustaqilligi yoʻqligi va yaxlit koʻchma ma’no ifodalashidir.

Oʻzbek tilidagi idiomalarning lingvistik xususiyatlari.

Oʻzbek tilida idiomalar xalq ogʻzaki ijodidan kelib chiqqan boʻlib, obrazlilik, milliylik va barqarorlik kabi xususiyatlarga ega [3]. Masalan:

• “Boshlari osmonga yetmoq” – juda quvonmoq.

• “Koʻngli joyiga tushmoq” – taskin topmoq, xotirjam boʻlmoq.

• “Qora terga qolmoq” – ogʻir mehnat qilmoq.

Bu idiomalar koʻpincha xalqning turmush tarzi, hayotiy kuzatuvlari va milliy tasavvuriga asoslangan. Shu sababli

ular boshqa tillarga soʻzma-soʻz tarjima qilinganda oʻz maʼnosini yoʻqotishi mumkin [1].

Ingliz tilidagi idiomalarning lingvistik xususiyatlari.

Ingliz tilidagi idiomalar ham xalqning hayot tarzi, madaniyati va mentalitetini aks ettiradi [2]. Ularning koʻpchiligi tarixiy voqealar yoki metaforik tasvirlarga asoslangan.

Misollar:

- “Kick the bucket” – vafot etmoq.
- “Break the ice” – suhbatni boshlash, muhitni yumshatmoq.
- “Spill the beans” – sirni oshkor qilmoq.
- “To be in the same boat” – bir xil qiyinchilikni boshdan kechirmoq.

Bu idiomalarning maʼnosini tushunish uchun ingliz tilidagi metaforik tafakkurni bilish zarur [5].

Oʻzbek va ingliz idiomalarining umumiyliklari va farqlari.

Har ikki tilda idiomalar nutqni obrazli va taʼsirchan qiladi. Idiomalar xalq madaniyatining mahsuli sifatida tildan tashqari bilimlarni ham talab etadi [3].

Ammo farqlari ham mavjud: oʻzbek idiomalari koʻproq agrar turmush tarziga bogʻliq boʻlsa (“qora terga qolmoq”), ingliz idiomalarida dengizchilik, tarixiy voqealar yoki urbanistik hayot tasvirlari koʻproq uchraydi (“to be in the same boat”). Oʻzbek idiomalari koʻpincha xalqona, poetik ifoda tusiga ega boʻlsa, ingliz idiomalari koʻproq metaforik va ironik tusda boʻladi [3].

Idiomalarning tarjima muammolari.

Idiomalarni tarjima qilishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Chunki ular milliy madaniyatga xos boʻlib, boshqa til foydalanuvchisiga begona boʻlishi mumkin [3]. Masalan:

- Oʻzbek tilidagi “yuragi orqaga tortmoq” iborasini inglizchaga soʻzma-soʻz tarjima qilib boʻlmaydi, balki “to lose courage” tarzida berilishi kerak.
- Ingliz tilidagi “once in a blue moon” iborasi “juda kamdan-kam hollarda” maʼnosini bildiradi, lekin soʻzma-soʻz tarjimada u mantiqsiz koʻrinadi. Shunday qilib, idiomalarni tarjima qilishda ekvivalent topish, izohli tarjima yoki maʼnodosh idiomani qoʻllash zarur [3].

Natijalar

Tadqiqot davomida oʻzbek va ingliz tillaridagi idiomalarning lingvistik tahlili quyidagi natijalarni koʻrsatdi:

Idiomalarning semantik mohiyati – har ikkala tilda ham idiomalar tarkibiy qismlarining lugʻaviy maʼnosidan farqli boʻlgan koʻchma maʼnoga ega ekanligi aniqlandi.

Oʻzbek tilidagi idiomalar – koʻproq xalqona tafakkur, agrar turmush tarzi va ogʻzaki ijodiy anʼanalarga tayanadi. Ular xalqning kundalik hayoti, mehnati va maʼnaviy qadriyatlar bilan bogʻliq.

Ingliz tilidagi idiomalar – metaforik ifodalar, tarixiy voqealar va urbanistik hayot tarziga asoslangan boʻlib, koʻpincha ironik va obrazli tus kasb etadi.

Umumiylik – har ikkala til idiomalari ham nutqqa obrazlilik, emotsional kuch va taʼsirchanlik baxsh etadi.

Farqlar – oʻzbek idiomalari koʻproq poetik va xalqona boʻlsa, ingliz idiomalari metaforik va ironik ohangda koʻproq qoʻllanadi.

Tarjima jarayoni – idiomalarni soʻzma-soʻz tarjima qilish koʻpincha semantik yoʻqotishlarga olib kelishi aniqlangan. Shu sababli izohli tarjima, maʼnodosh idiomaga qoʻllash yoki ekvivalent topish eng samarali usullar sifatida koʻrsatildi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, idiomalarning lingvistik tahlili ularning nafaqat tilshunos-

likdagi oʻrnini, balki xalq tafakkuri va madaniyati bilan chambarchas bogʻliqligini ham ochib beradi.

1. *Madaniyat va tafakkur* – idiomalar milliy madaniyatni ifodalovchi oʻziga xos belgilarni mujassam etadi. Masalan, oʻzbek tilida agrar hayot manzaralari (“qora terga qolmoq”), ingliz tilida esa dengizchilik (“to be in the same boat”) keng qoʻllanadi.

2. *Til va tarjima jarayonida muammolar* – idiomalarni tarjima qilishda bevosita ekvivalent topilmaganda, ularni izohlash yoki funksional moslashtirish lozim. Bu tarjimon oldida lingvistik emas, balki madaniy kompetensiyani ham talab qiladi.

3. *Lingvistik va pragmatik jihatlar* – idiomalarning semantik yaxlitligi ularni alohida oʻrganishni taqozo etadi. Pragmatik nuqtai nazardan, ular nutqni boyitadi, emotsional kuch beradi va tinglovchiga kuchli taʼsir koʻrsatadi.

4. *Ilmiy va amaliy ahamiyat* – idiomalarning chuqur tahlili qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatlara muloqot va til oʻqitish metodikasida muhim amaliy natijalar beradi.

Oʻzbek va ingliz tillarida qoʻllanadigan idiomalar xalq tafakkurining yorqin ifodasi, madaniy merosning ajralmas boʻlagi va milliy dunyoqarashning ifodachisi sifatida alohida ilmiy qimmatga ega ekanligi tadqiqot davomida yaqqol koʻrsatildi.

Har ikkala tildagi idiomalar tilning oddiy leksik birliklaridan farqli oʻlaroq, semantik yaxlitlik, barqarorlik va obrazlilik kabi muhim lingvistik belgilarni mujassamlashtiradi.

Oʻzbek tilidagi idiomalar koʻproq agrar turmush tarziga, xalq ogʻzaki ijodiga, milliy qadriyatlar va anʼanaviy dunyoqarashga asoslangan boʻlsa, ingliz tilidagi idiomalarda urbanistik hayot, tarixiy jarayonlar, madaniy transformatsiyalar hamda metaforik va ironik ifodalar kuchliroq namoyon boʻladi. Bu esa shuni koʻrsatadiki, idiomalar milliy tafakkur va madaniyatning bevosita mahsuli boʻlib, ularni oʻrganish orqali xalqning ijtimoiy hayoti, tarixiy xotirasi va madaniy merosini anglash mumkin.

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatdiki, oʻzbek va ingliz tillaridagi idiomalarda umumiyliklar ham mavjud. Masalan, har ikkala til idiomalari nutqni taʼsirchan, obrazli va emotsional jihatdan boyitadi. Shu bilan birga, idiomalarning maʼnosini anglash koʻpincha til foydalanuvchisidan tildan tashqari bilim, yaʼni madaniy va ijtimoiy kontekstni bilishni talab etadi.

Tarjima jarayonida idiomalarning oʻziga xos semantik va madaniy xususiyatlari katta qiyinchiliklar tugʻdiradi. Tadqiqotda aniqlanishicha, idiomalarni soʻzma-soʻz tarjima qilish koʻpincha semantik yoʻqotishlarga olib keladi. Shu sababli tarjimada ekvivalent idiomalardan foydalanish, izohli tarjima yoki moslashtirish kabi usullar samarali hisoblanadi [2].

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, idiomalarni chuqur oʻrganish nafaqat lingvistik tahlil uchun, balki madaniyatlararo muloqot, tarjimashunoslik va xorijiy til oʻqitish metodikasida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki idiomalarni bilish va toʻgʻri qoʻllash chet tilini mukammal egallashning asosiy koʻrsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, idiomalarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish, ularning milliy-madaniy ildizlarini oʻrganish va tarjima jarayonidagi muammolarini yoritish tilshunoslik oldida dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda. Bu sohada amalga oshiriladigan keyingi izlanishlar ikki va undan ortiq tillar oʻrtasidagi madaniy va lingvistik oʻzaro taʼsirni yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. G'ulomov A. O'zbek frazeologiyasi asoslari. – Toshkent: O'zMU, 2008.
2. Sayfullayeva R. O'zbek tilining frazeologiyasi. – Toshkent: «Fan», 2012.
3. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. – London: «Routledge», 1992.
4. Fernando C. Idioms and Idiomaticity. – Oxford: Oxford University Press, 1996. Cambridge Dictionary.
5. Idiom definition. <https://dictionary.cambridge.org>

REZYUME. Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi idiomalarning lingvistik tahlili yoritilgan. Idiomalarning barqarorlik, ko'chma ma'no, obrazlilik va milliylik kabi belgilari ilmiy nuqtayi nazardan izohlangan. O'zbek tilidagi idiomalar ko'proq xalqona tafakkur va agrar hayot tarziga asoslangan bo'lsa, ingliz tilidagi idiomalarda metaforik hamda ironik ohang kuchliroq namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqolada idiomalarni tarjima qilishda uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье проводится лингвистический анализ идиом в узбекском и английском языках. Рассматриваются такие характеристики идиом, как устойчивость, переносное значение, образность и национальная специфика. Узбекские идиомы в большей степени связаны с народным мышлением и аграрным образом жизни, тогда как английские идиомы чаще выражают метафоричность и иронию.

SUMMARY. The article is presented a linguistic analysis of idioms in Uzbek and English. It explores key features of idioms such as stability, figurative meaning, imagery, and cultural specificity. Uzbek idioms are mainly rooted in folk thinking and agrarian lifestyle, while English idioms often reflect metaphorical and ironic aspects.

REŇLERDEGI “JAQSILIQ” HÁM “JAMANLIQ” SIMVOLLÍ KONNOTATIV MÁNILER

G.M.Bekbosinova – *tayanish doktorant*

Berdaq atındaǵı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti

Tayanch so'zlar: yaxshilik, yomonlik, sariq, qizil, yashil, ola, ko'k rang, konnotativ ma'no, ijobiy va salbiy sema.

Ключевые слова: добро, зло, желтый, красный, зеленый, синий, серый цвет, коннотативное значение, положительное и отрицательное значение.

Key words: good, evil, yellow, red, green, blue, gray color, connotative meaning, positive and negative meaning.

Kirisiv. Reñler átiraptı túslendiriw menen birge insannıń hár qıylı keshirmelerin, halatın bildirip te keledi. Reñdi bildiretuǵın sózler az muǵdarda ushırasqanı menen tilimizde aktiv qollanılauıǵın leksemalar esaplanadı. Kópshilik jaǵdayda jaqsılıq hám jamanlıqtıń, unamlı hám unamsız obrazlardıń beriliwinde aq hám qara reñi ónimli qollanıladı degen túsinik bar, degen menen basqa da qızıl, sarı, kók, ala, jasıl, sur reñler arqalı da bul konseptual qarama-qarsılıqlar beriliwi múmkin. Olar sóylewde awıspalı mánide qollanılıp, emocional-ekspressivlik tásisheñlikti asıradı hám insannıń tuyǵı-sezimlerin, psixologiyalıq halatların kórsetip bere aladı.

Ádebiyatlar analizi. Rus til biliminde eń dáslep leksikalıq konnotaciya máselelerin A.V.Filippov [2:57-63] óz miynetlerinde sóz etken bolsa, ózbek til biliminde reñ-tús bildiriwshi sózler konnotaciyasın M.Xirojiddinova arnawlı túrde izertledi [14], sonday-aq, ózbek xalıq qosıqlarında reñ simbolikası máselelerin M.Róziyeva [12] arnawlı túrde úyrenip analizlegen.

Izertlew metodologiyası. Izertlew barısında emperikalıq analiz metodınan, salıstırmalı analiz, kontekstuallıq analiz metodlarınan paydalanıldı.

Talqılaw hám nátiyjeler. Reñler bir qansha simvolliq mánilerdi ózinde jámlegen, olardıń biri qızıl reñi xalıq arasında bir qansha unamlı, jaqsılıqqa jorılıwshı mánilerdi bildiredi. L.Mironovanıń pikirinshe qızıl reñ ómirdiń, kúshtiń, energiyanıń reñi. Afrika xalıqları ushın qızıl reñ ómirdi ańlatsa, qızıl miyweler ónimdarlıqtı bildirgen. Qıtay, grek-rim ellerinde de qızıl reñ ónimdarlıq simvoli esaplanadı [8:35]. Bizde de diyqanlardıń qırman jıynawında “qırmanıń qızılansın” tilegi bildiriledi. Bul qırmanıń tassın, kóbeysin, daqılıń mol bolsın degen mánilerdi ańlatadı. Sonday-aq, xalıq arasında qızıl reñ qorǵanıw simvoli sıpatında da qaraladı. Bunda jawız ruwxlarǵa, sırtqı qara kúshlerge qarsı qorǵanıw, saqlanıw wáziypasın atqaradı dep te iseniledi. Máselen, qızıl tawardan duwa tigip qasına alıp júriwi yáki taza jay salǵanda qızıl reñli predmetler (quman, duwa, tawar) ildirip qoyılıwı – bul kózigiwdiń aldın aladı dep boljanadı. Hátte qızıl reñ kiyim kiyse kóz tiymeydi adamlardıń názeri adamǵa emes, sol kiyimge túsedı dep

iseniledi. Ilimpazdıń pikirinshe bul sıyaqlı isenim yaǵnıy qızıl reñniń sırtqı kúshlerdi qaytarıwın Palestin hám arqa batıs Afrika ellerinde de iseniledi [8:36]. Tilshi M.Róziyeva “O'zbek xalıq qo'shiqlarında rang simbolikası” miynetinde bul reñ alǵashqı dáwir adamları túsiniginde de sırtqı qara kúshlerden qorǵanıw reñi ekenligin, qurbanlıq qılıwda úngir awızına qızıl reñli qol hám ógiz súwreti túsilgenligin, bul bolsa olardıń túsinigi boyınsha qurbanlıqtan soń qara kúshler olardı qayta mazalamaytuǵın boladı dep isengenligin jazadı [12:12].

Búgingi kúnge deyin medicina bazıbir keselliklerdi (qızılsha, suwsheshek, qızamıq) emlewde qızıl reñli tawar menen oraw arqalı járdem beretuǵınlıǵın biykarlamaydı [8:37]. Yaǵnıy biziń xalqımız arasında da balalar bul kesellikler menen awırsa qızıl reñli kiyim kiygizip qoyılardı.

Qızıl reñi xalıq arasında baylıq degen mánide de qollanılardı. Bul naqıl-maqallarda ushırasatuǵın “Qızıl kórse perishte de joldan shıǵadı” (bazı dereklerde altın kórse perishte joldan shıǵar) degen maqalda qızıl reñi baylıq, altın mánilerinde qollanılıp tur. B.Yusupova óz miynetinde bul maqalǵa túsinik berip, perishteniń joldan shıǵıw háreketi eki túrli túsiniledi: birinshisi: ózgeredi, buzılısadı, aynıydı, perishtelik qásiyetin, sıpatın joytadı degen máni bolsa, ekinshisi oǵan qarama-qarsı mánide yaǵnıy usı perishteligin saqlap qalıw, soǵan sadıq bolıp qalıw, aynımaw, ózgermew maqsetinde altındı kórgende joldan shetke shıǵıp, altındı aylanıp ótedi degen máni túsiniledi dep keltirgen [15:340]. Bul dástanlar tilinde de ushırasadı. *Balam, atań Nárik bay Áliy biyden qorqıp, eki túye qızıldı dárbenke aparıp túni menen shóktirip keldi* [3:122]. Qızıl reñi jáne de bahalawdıń joqarı kategoriyası sıpatında qaralıp, orta bilim beriw mekemelerinde, joqarı oqıw orınlarında aǵla bahalarǵa oqıǵan jaslarǵa qızıl diplom beriw halatı ushırasadı. Bul bolsa basqalardan ajralıp turıw, maqtanish etiw mánisin de bildiredi. Misalı: *Ol kewlimdegidey bolıp talim aldı. Instituttı qızıl diplom menen pitkerip shıqtı* [9:44].

Qızıl reñ tuyǵılar boranın da ańlatadı. Bul quwanış hám gázep sezimleri bolıwı múmkin. Tómendegı misallardan uyalıw, qısınw mánilerinde kelgen qızıl,